

O‘ZBEK FOLKLORI TARIXIY MANBA SIFATIDA

Mirzohid Maxamadjon o‘g‘li Askarov

Katta ilmiy xodimi, PhD

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti,

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi dotsenti,

Tashkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek folklori tarixiy manba sifatida har tomonlama tahlil qilinadi. O‘zbek xalqining qadimiy an‘analari, urf-odatlari, hayot tarzi va tarixiy jarayonlari xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘z aksini topadi. Dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar va xalq qo‘sishlari o‘zbek xalqining ijitimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid muhim tarixiy ma'lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu maqolada o‘zbek folkloridagi tarixiy voqealar aks ettirilgan dostonlar va ertaklar asosida o‘tmish voqealari tahlil qilinadi. Folkloarning tarixiy asoslari, xalq ongidagi yodgorliklar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek folklori, tarixiy manba, doston, “Edigey”, “Algomish”, ertak, maqol, xalq qo‘sishlari.

УЗБЕКСКИЙ ФОЛЬКЛОР КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

Мирзохид Махаммаджонович Аскarov

Старший научный сотрудник, (PhD)

*Научно-исследовательский институт культурологии и нематериального
культурного наследия,*

*Доцент кафедры истории народов Средней Азии,
Ташкентский государственный университет востоковедения*

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ узбекского фольклора как исторического источника. Древние традиции, обычаи, образ жизни и исторические процессы узбекского народа находят отражение в произведениях устного народного творчества. Эпосы, сказки, пословицы,

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.15092645

поговорки и народные песни содержат важную историческую информацию о социальной, политической и культурной жизни узбекского народа. В статье анализируются прошлые события на основе эпосов и сказок, отражающих исторические события в узбекском фольклоре. Освещаются исторические основы фольклора, коллективная память народа и их влияние на развитие общества.

Ключевые слова: узбекский фольклор, исторический источник, эпос, “Эдигей”, “Алпомыш”, сказка, пословица, народные песни.

UZBEK FOLKLORE AS A HISTORICAL SOURCE

Mirzokhid Makhammadjonovich Askarov

Senior Researcher, (PhD)

*Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage,
Associate Professor, Department of History of the Peoples of Central Asia,
Tashkent State University of Oriental Studies*

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of Uzbek folklore as a historical source. The ancient traditions, customs, lifestyle, and historical processes of the Uzbek people are reflected in examples of oral folk art. Epics, fairy tales, proverbs, sayings, and folk songs embody essential historical information about the Uzbek people's social, political, and cultural life. This article analyzes past events based on epics and tales depicting historical events in Uzbek folklore. The historical foundations of folklore, the collective memory of the people, and their influence on the development of society are highlighted.

Keywords: Uzbek folklore, historical source, epic, "Edigey", "Alpomish", fairy tale, proverb, folk songs.

KIRISH

O‘zbek xalq folklori milliy madaniyat, tarix va ijtimoiy hayotning eng muhim qirralarini o‘zida mujassam etgan ulkan manba hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, qo‘sishqlar, ertaklar, afsonalar, maqollar, topishmoqlar, marosim qo‘sishqlari va

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.15092645

rivoyatlar – xalqning hayoti, dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va tarixiy voqealarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. O‘zbek folklori xalqning o‘tmishidan so‘zlovchi, tarixiy xotirasini asrab-avaylovchi va avloddan-avlodga yetkazib beruvchi noyob boylikdir. Folklor xalqning kundalik turmushi, mehnat jarayonlari, diniy marosimlari, oila va jamiyat hayoti, urush va tinchlik davrlari bilan bog‘liq qadimiy qarashlarni saqlaydi.¹ O‘zbek folklorining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati shundaki, u o‘zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va siyosiy tarixini, milliy mentalitetini, turmush tarzini va qadriyatlarini o‘rganishda muhim asos bo‘ladi. O‘zbek folklori milliy o‘zlikni anglash, xalq madaniyatini o‘rganish va milliy g‘ururni shakllantirishda beباho manba hisoblanadi.

USLUBLAR

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy usullar qo‘llanilgan. Dostonlar, ertaklar, maqollar va xalq qo‘shiqlaridagi tarixiy voqealar tahlil qilinib, ularning tarixiy asoslari aniqlangan. Folklor namunalaridagi tarixiy dalillar qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganilgan. Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodidagi voqealar tarixiy manbalar bilan solishtirilib, ularning tarixiy qiymati aniqlangan.

NATIJALAR

Ma’lumki, xalqimizning san’atga oid qobiliyatining asrlar davomidagi uzlusiz rivojlanishi natijasida turli-tuman janrlardan tarkib topgan og‘zaki badiiy ijodning noyob durdonalari vujudga kelgan. Shu bois, o‘zbek xalq ijodiyoti ajdodlarimizning ko‘p asrlik san’atga oid tafakkuri durdonalarini o‘zida aks ettirgan beباho milliy meroslarimizdan biridir. Folklorshunoslik esa asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan xalq og‘zaki

¹ Agzamxo‘jayeva M.S. O‘zbekiston ma’naviy yangilanishida badiiy madaniyatning o‘rni. – T., 2008. – B. 158.

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.15092645

badiiy ijodi asarlarini yig‘ish, folklor namunalari arxivini yaratish, uning eng sara namunalarini chop etish, ilmiy o‘rganish va keng targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadi.²

O‘zbek folklori asarlarining to‘planishi va yozib olinishi tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Bu jarayon davomida mashhur tarixchilar, adiblar va olimlar xalq og‘zaki ijodini to‘plash, tizimga solish va yozib qoldirishga alohida hissa qo‘sghanlar. Folklor asarlarining bunday to‘planishi xalqimizning boy madaniy merosini saqlab qolishga xizmat qilgan.

O‘zbek folklori namunalari yig‘ilishi va yozib olinishi tarixi haqida so‘z borganda, X asrda yashab va ijod qilgan mashhur tarixchi Abu Bakr ibn Ja’far Narshaxiyning “Buxoro tarixi”³ asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy yodgorliklar hamda o‘tmishda ro‘y bergen voqealar haqidagi xalq rivoyatlari va afsonalari keltirilganini eslash zarur.

XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalar yurtini kezib, maqol, matal, qo‘sinq, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, “Devonu lug‘otit turk”⁴ asariga kiritgan.

Shuningdek, ajdodlarimizning qadimiylar bilan bog‘liq mifologik qarashlari, urf-odatlari va marosimlari, afsona va rivoyatlarini o‘z asarlarida qayd etgan qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy⁵; maqol va matallarni yozib olib, ularning xususiyatlarini tahlil qilgan Mahmud Zamaxshariy; qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarini “Qisasi Rabg‘uziy”ga jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy; o‘zbek xalq she’riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy; ulug‘ o‘zbek shoiri haqida xalq rivoyatlarini bayon qilgan tarixchi Xondamir; musiqa

² Tursunov H. Baxshichilik san’ati va uning tarixiy ildizlari. – T., 2015. – B. 128.

³ Наршахий. Бухоро тарихи. –Т.: Фан, 1966.

⁴ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III tom. – T.: Fan, 1960, – B. 138.

⁵ Irisov A. Beruniy va uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari. Tanlangan asarlar, I том. – Т.: Fan, 1968. – 639 b; Irisov.A Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari. Beruniy. Tanlangan asarlar. II том. – Т.: Fan, 1965. – 663 b; Abu Rayhon Beruniy “Geodeziya”. – Т.: Fan, 1966. – 378 b; Abu Rayhon Beruniy. Mineralogiya. – Т.: Fan, 1963. - 338 b.

folklorining turli janrlariga oid materiallarni yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy; o‘zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari, maqol va hikmatli so‘zlari, rivoyatlari haqida qiziqarli ma’lumotlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur; xalq maqollarining dastlabki nufuzli to‘plovchilaridan biri Gulxaniy; tuzgan lug‘atida xalq qo‘schiqlaridan ko‘plab misollar keltirgan Shayx Sulaymon Buxoriy o‘zbek folklori namunalari yig‘ilishiga ulkan hissa qo‘sghanlar.⁶

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va o‘rganish jarayoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlangan. Bu davrda rus sharqshunoslari va etnograflari tomonidan o‘zbek folklori, xalq e’tiqodlari, urf-odatlari, marosimlari, mifologiyasi va diniy qarashlariga doir ilk tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrda A.Divayev, A.Eywgorn, A.N.Samoylovich, N.P.Ostromov, V.Vyatkin, L.Kun, A.Vasilyev, G.Arandarenko, A.Grebenkin, M.Gavrillov, V.Nalivkin, E.M.Peshcheryeva, N.Likoshin, P.Komarov, A.Xoroshxin, K.G.Zeleman, YU.Kazbekov, L.Bundzinskiy, M.Rostislavov, G.Andreyev, M.S.Andreyev, V.G.Andreyev, L.Simonova, A.L.Troitskaya kabi olimlar o‘zbek folklori, xalq e’tiqodlari va marosimlariga oid ko‘plab materiallarni yig‘ib, rus tilida nashr ettirdilar. Ular o‘zbek xalqining turmush tarzi, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari, marosimlari va og‘zaki ijodini o‘rganishga katta hissa qo‘sghanlar.⁷

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini bevosita jonli ijro sharoitlarida yozib olish, to‘plab nashr etish va ilmiy o‘rganish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlandi. “Maorif” jurnalining 1918 yil 1-sonida xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plovchilar uchun qo‘llanma chop ettirilishi bilan o‘zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olishga asos solingan. Folklor asarlarini to‘plash va o‘rganish ishlari 1918 – 1920 yillarda Turkiston Maorif xalq komissariatining Turkiy seksiyasi, 1921 – 1924 yillarda esa Davlat ilmiy kengashining O‘zbek bilim hay’ati tomonidan amalga oshirilgan.

⁶ Hasanov U. Baxshichilik san’ati: xalq ijodining durdonasi. – T., 2016. – B. 98.

⁷ Islomov A. O‘zbekiston madaniy merosi: tarix va kelajak. – T., 2015. – B. 204.

O‘zbek bilim hay’atining Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumaniga (1921), Samarqand va Sirdaryo viloyatlariiga (1922), Farg‘ona vodiysiiga (1922) uyushtirgan folklor ekspeditsiyalari, ayniqsa, samarali bo‘lgan. Bu ilmiy safarlarda qatnashgan G‘ozzi Olim Yunusov va G‘ulom Zafariy lapar, o‘lan, bolalar qo‘shiqlari, og‘zaki drama, ertak va afsona, marosim folkloriga oid materiallarni yozib olishgan.⁸

O‘zbek bilim hay’ati tomonidan tashkil etilgan folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G‘.O.Yunusov xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini to‘plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan.⁹ Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi xalq baxshilarini aniqlagan G‘.O.Yunusov o‘zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo‘lib 1922 yilning yozida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilardan “Alpomish” dostonidan parchalar yozib olgan. U o‘zining “O‘zbeklarda el tanish ishi” nomli maqolasida («Turkiston», 1922, 18 dekabr) folklorshunoslikda birinchi bo‘lib “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Yusuf va Ahmad” dostonlari haqida fikr yuritgan, “Alpomish” dostonini jahon adabiyotining “Odisseya”, “Iliada” kabi ajoyib durdonalariga qiyoslagan. G‘.O.Yunusov Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo‘lib, ko‘plab qo‘shiq, ertak, afsona, maqol, topishmoq va rivoyatlarni yozib olgan, o‘zbek marosim folkloriga doir kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda boy etnografik materiallarni ham to‘plagan. Olim o‘zbek folklori namunalarini to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma ham yaratgan.¹⁰

MUHOKAMA

O‘zbek folklori janr jihatidan ham nihoyatda boydir. Xususan, dostonlar xalq tarixidagi muhim voqealar, qahramonlik,adolat va muhabbat haqidagi e’tiqodlarni aks

⁸ Jo‘raev M. Milliy madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. – T., 2007. – B. 112.

⁹ Rashidova L. Xalq ijodi va madaniy merosni rivojlantirish yo‘nalishlari. – T., 2018. – B. 136.

¹⁰ Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур Тарихшунослик таҳдили. – Т., 2014. –Б. 336.

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.15092645

ettiradi. Qo’shiqlar xalqning mehnati, quvonch va qayg‘usi, muhabbatи va turmush tarzi bilan bog‘liq. Ertaklar xalqning hayot haqidagi tasavvurlari, axloqiy qadriyatлari va orzu-umidlari aks etadi. Afsonalar va rivoyatlar tarixiy shaxslar, joylar va voqealar bilan bog‘liq xotiralarni ifodalaydi. Maqollar va topishmoqlar xalq donoligi, hayotiy tajribasi va fikrlash tarzini aks ettiradi. Marosim qo’shiqlari esa to‘y, dafn, hosil yig‘im-terimi kabi turli marosimlarda kuylanadigan qo’shiqlarni o‘z ichiga oladi.¹¹

O‘zbek dostonlari xalq og‘zaki ijodining noyob yodgorliklaridan biri bo‘lib, ular nafaqat badiiy asarlar sifatida, balki xalqning tarixiy xotirasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonlar xalqning tarixiy kechmishtilarini, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni, harbiy yurishlar va madaniy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Ular orqali o‘zbek xalqining milliy o‘zligi, qadriyatлari va tarixiy xotirasi shakllangan. Dostonlarning tarixiy ildizlari va rivojlanishi bir necha muhim tarixiy bosqichlarga bo‘linadi.

O‘zbek dostonlarining dastlabki bosqichi qadimgi turkiy qabilalar madaniyati bilan bog‘liq. Miloddan avvalgi I ming yillikda Markaziy Osiyo hududida yashagan saklar, massagetlar, xunlar va boshqa ko‘chmanchi qabilalar o‘zlarining urushlar, qahramonlik va yurt himoyasi bilan bog‘liq afsonalari orqali ilk dostonlarni yaratgan. Bu davrdagi dostonlarda qahramonlar ko‘chmanchi turmush tarziga ega bo‘ladi.¹² Ularning asosiy maqsadi – yurtni himoya qilish va o‘z urug‘ini himoya qilishdir. Turkiy qabilalar o‘rtasidagi urushlar, bosqinchilarga qarshi kurash asosiy mavzu sifatida tasvirlanadi. “Alpomish” dostoni aynan shu davr madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, unda qabila boshliqlarining siyosiy va harbiy mavqeи tasvirlanadi. “Alpomish” qadimgi turkiy qahramonlik eposi namunasi bo‘lib, unda qahramonning yurt himoyasi uchun kurashi asosiy o‘rin tutadi. Doston qahramoni Alpomishning obrazi qadimgi turkiy jangchilariga

¹¹ Утанова У.А. Мустақил Ўзбекистонда халқ маданиятининг равнаки. (фалсафий-маданий ёндашув). –Т.: 2008. – Б.154.

¹² Ҳасанов Ш.А. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. –Т., 2007. – Б.148.

xos sifatlar – jasorat, matonat, sadoqat bilan gavdalantiriladi. Bu dostonda qadimgi turkiylarning oilaviy munosabatlari, qabila ichidagi nizolar va boshqaruv tizimi aks etadi.¹³

VII – X asrlarda Islom dini Markaziy Osiyoga kirib kelishi natijasida o‘zbek xalqining ma’naviy va siyosiy hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar o‘zbek dostonlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Doston qahramonlari Allohga ishonadi, adolat uchun kurashadi va imon bilan ish ko‘radi. Islom dini qadriyatları – halollik, adolat, tavakkul, duo qilish kabi tushunchalar dostonlarda aks etadi. Qahramonlar o‘z harakatlarini Islom asoslariga muvofiq tarzda bajaradi. “Alpomish” dostoni Islom dini qabul qilinganidan keyin yangi diniy motivlar bilan boyitilgan. Alpomish Allohga tavakkul qiladi, duo bilan ish boshlaydi va g‘alabaga erishadi. Dostonlarda qahramonning diniy e’tiqodi uning ma’naviy kuchini ifodalaydi. Islom ta’siri o‘zbek xalqining ma’naviy hayotini mustahkamlash bilan birga, dostonlarning badiiy ko‘lamini ham kengaytirgan.¹⁴

O‘zbek xalqi tarixidan so‘zlovchi yana bir xalq dostoni bu - “Edigey” o‘zbek xalq dostonlari orasida alohida o‘rin tutadi. Bu doston turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa, Oltin O‘rda, Nog‘aylar va Qipchoq xalqlari tarixiga bog‘liq. "Edigey" dostoni tarixiy voqealarga asoslangan bo‘lib, unda XIV asr oxiri va XV asr boshlaridagi Oltin O‘rda davridagi siyosiy voqealar, ichki nizolar, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq jarayonlar aks etadi. Doston qahramoni Edigey tarixiy shaxs bo‘lib, u Oltin O‘rdanining nufuzli sarkardasi sifatida tanilgan.¹⁵

“Edigey” dostoni XIV – XV asrlardagi Oltin O‘rda davrining murakkab siyosiy voqealari bilan bog‘liq. Edigey tarixiy shaxs sifatida To‘xtamish bilan ziddiyatga borgan

¹³ Тожибоев М.Т. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида миллий-маънавий қадриятларнинг тикланиши ва ривожланиши. Фил. фан.ном.дисс. – А., 2001. – Б.167.

¹⁴ Алимухаммедов А. Ислом динидаги маросимчилик ва урф-одатлар. –Т.: 1969. – Б. 89.

¹⁵ Ҳасанов Ш.А. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonlари поэтикаси. –Т., 2007. – Б.148.

va uni mag‘lub qilgan. Bu holat tarixiy manbalarda ham o‘z aksini topgan. Edigey Amir Temur bilan siyosiy ittifoq tuzgan, ammo keyinchalik ular o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Doston Edigeyning siyosiy donoligi va harbiy jasorati bilan bir qatorda, xalq manfaatini himoya qilish, adolatni qaror toptirishga intilganligini ko‘rsatadi. Edigeyning qahramonlik xususiyatlari, xalqparvarligi va mardligi dostonning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishidir.¹⁶

Edigey tarixda 1352 – 1419 yillarda yashagan nufuzli sarkarda sifatida mashhur bo‘lgan. U Oltin O‘rda xoni To‘xtamish bilan ziddiyatga borib, Amur Temur bilan ittifoq tuzgan va To‘xtamishni mag‘lub etishga muvaffaq bo‘lgan. Dostonning asosiy voqealarini aynan shu tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq. Edigey Oltin O‘rda ichida siyosiy hokimiyatni mustahkamlashga intilgan va Nog‘aylar qabilasini boshqargan. Dostonning tarixiy ildizlari XIV asrga borib taqaladi. Edigey Amir Temur bilan ittifoq tuzib, Oltin O‘rdada o‘z mavqeini mustahkamlashga intiladi. Tarixiy manbalarda Amir Temur bilan Edigey o‘rtasidagi munosabatlar murakkab bo‘lganligi qayd etiladi. Dostonning ko‘plab versiyalarida Edigey Amir Temurga sadoqatli sarkarda sifatida tasvirlanadi, ammo ba’zi manbalarda ular o‘rtasida kelishmovchiliklar bo‘lganligi ham qayd qilinadi.

“Edigey” dostonida asosiy voqealar qahramon Edigeyning bolalik davridan boshlab, uning jasorati, dono siyosati, yurtni himoya qilishdagi qahramonligi bilan bog‘liq. Doston quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: birinchidan, Edigeyning tug‘ilishi va bolalikdagi sinovlari tasvirlanadi. Edigey kichik yoshdan boshlab jasorati bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, Edigey Amir Temur bilan uchrashib, undan qo‘llab-quvvatlash oladi. U Amir Temur ko‘magida Oltin O‘rdada o‘z ta’sirini kuchaytiradi. Uchinchi bosqichda To‘xtamish bilan kurash dostonning asosiy qismi hisoblanadi. Edigey To‘xtamishni mag‘lub etib, Oltin O‘rdada tartib o‘rnatsihga muvaffaq bo‘ladi.

¹⁶ Дониёров А.Х. Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Дисс.док.истор.наук. – Т., 2003. – С. 196.

To‘rtinchidan, Edigey Oltin O‘rdada nufuzli davlat arbobi sifatida hukmronlik qiladi va xalq farovonligini ta’minlaydi. Nihoyat, dostonning yakuniy qismida Edigeyning vafoti tasvirlanadi. U o‘z xalqini himoya qilgan qahramon sifatida e’tirof etiladi.

“Edigey” dostoni xalq og‘zaki ijodida tarixiy voqealar bilan bog‘liq holda shakllangan. Edigey obrazi tarixiy shaxs bo‘lishi bilan birga, xalq ideal qahramoni sifatida tasvirlanadi. U dono, adolatli va jasur sarkarda sifatida gavdalantiriladi. Doston orqali o‘sha davrdagi davlat boshqaruvi tizimi, harbiy yurishlar, ichki nizolar va xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Doston tarixiy hodisalarga asoslangan bo‘lsa-da, unda badiiylik kuchli. Edigey obrazi orqali xalqning jasoratga, adolatga va yurt himoyasiga bo‘lgan intilishi ifodalangan.

“Edigey” dostoni Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, tatarlar va nog‘aylar orasida keng tarqalgan. Dostonning turli versiyalari mavjud bo‘lib, asosiy voqealar bir xil saqlangan, faqat tafsilotlar farqlanadi. Bu esa dostonning tarixiy haqiqatga asoslanganini ko‘rsatadi. Doston xalq orasida nafaqat badiiy yodgorlik sifatida, balki tarixiy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Doston orqali Edigeyning tarixiy shaxs sifatidagi obrazi gavdalantiriladi, uning jasorati, xalq manfaatiga xizmat qilishga intilishi ulug‘lanadi. Bu doston orqali xalq o‘zining tarixiy ildizlariga, milliy qahramonlariga bo‘lgan hurmatini ifoda etadi.

O‘zbek xalqining turmush tarzi ko‘chmanchi va o‘troq madaniyat uyg‘unligi asosida shakllangan. Bu holat dostonlarda aniq ko‘rinadi. Qahramonlar ko‘chmanchi hayot tarziga mos ravishda ot minish, jang qilish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Shu bilan birga, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq tasvirlar ham uchraydi. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining ko‘chmanchi va o‘troq hayot tarzini aks ettiradi.

O‘zbek dostonlari xalqning tarixiy kechmishlari, urushlar, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy muhit va diniy e’tiqod bilan chambarchas bog‘liq. Dostonlar o‘zbek

xalqining milliy qadriyatlarini, qahramonlik ruhini va tarixiy voqealarni badiiy tarzda aks ettirgan. Dostonlarda qadimgi turkiy davr qahramonlik ruhidan tortib, Amir Temur davri g‘alabalari va mo‘g‘ul istilosining og‘ir oqibatlarigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlar aks ettirilgan. Shu sababli o‘zbek dostonlari nafaqat badiiy asar, balki tarixiy manba sifatida ham qimmatli hisoblanadi.

XULOSA

O‘zbek folklori xalqning ma’naviy boyligi va tarixiy xotirasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar va xalq qo‘shiqlari – o‘zbek xalqining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli tarixiy manba hisoblanadi. Folklor namunalarida xalqning qadimiy an’analari, urf-odatlari, turmush tarzi va tarixiy jarayonlari o‘z aksini topgan.

Dostonlar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini aks ettiruvchi asosiy manbalardan biri sanaladi. Masalan, “Edigey” dostoni XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyodagi siyosiy voqealarni yoritadi. “Alpomish” dostoni esa mustaqillik, vatanparvarlik va sadoqat kabi qadriyatlarni aks ettiradi. Ertaklar xalqning dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Maqol va matallar esa xalq hayotiy tajribasini, xalq qo‘shiqlari esa dard-u quvonch, muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini badiiy ifoda etadi.

Folklor orqali xalqning tarixiy xotirasi saqlanib, avloddan-avlodga yetib keladi. Dostonlar, ertaklar, maqollar va xalq qo‘shiqlari tarixiy jarayonlar va xalq qahramonlik an’analarni yoritadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek folklori xalq tarixinining muhim ma’naviy manbasi sifatida milliy o‘zlikni saqlash va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. Folklooni tadqiq qilish xalqning tarixiy merosi va ma’naviy qadriyatlarini asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Agzamxo‘jayeva M.S. O‘zbekiston ma’naviy yangilanishida badiiy madaniyatning o‘rni. – T., 2008. – B. 158.
2. Алимухаммедов А. Ислом динидаги маросимчилик ва урф-одатлар. – Т.: 1969. – Б. 89.
3. Дониёров А.Х. Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Дисс.док.истор.наук. – Т., 2003. – С. 196.
4. Irisov A. Beruniy va uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari. Tanlangan asarlar, I том. – Т.: Fan, 1968. – 639 b.
5. Hasanov U. Baxshichilik san’ati: xalq ijodining durdonasi. – Т., 2016. – B. 98.
6. Islomov A. O‘zbekiston madaniy merosi: tarix va kelajak. – Т., 2015. – B. 204.
7. Jo‘raev M. Milliy madaniyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. – Т., 2007. – B. 112.
8. Rashidova L. Xalq ijodi va madaniy merosni rivojlantirish yo‘nalishlari. – Т., 2018. – B. 136.
9. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III том. – Т.: Fan, 1960, – B. 138.
10. Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур Тарихшунослик таҳлили. – Т., 2014. –Б. 336.
11. Наршахий. Бухоро тарихи. –Т.: Фан, 1966.
12. Tursunov N. Baxshichilik san’ati va uning tarixiy ildizlari. – Т., 2015. – B. 128.
- Утанова У.А. Мустақил Ўзбекистонда халқ маданиятининг равнақи. (фалсафий-маданий ёндашув). –Т.: 2008. – Б.154.
13. Ҳасанов Ш.А. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек достонлари поэтикаси. – Т., 2007. – Б.148.
14. Тожибоев М.Т. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида миллий-маънавий қадриятларнинг тикланиши ва ривожланиши. Фил. фан.ном.дисс. – А., 2001. – Б.167.